
Malikaxon Tojiboyeva: Qizim tikuvchilik bilan o'z oilasini tebratmoqda

Mamlakatimizda doimiy ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni uy sharoitida ham daromad topishlariga ko'maklashish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Ayollar daftari"ga olingan xotin-qizlarga hokim yordamchilarining tavsiyalariga ko'ra, mehnat qurollari subsidiya asosida ajratilmoqda.

"Madaniyat" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Nigoraxon Tojiboeva ham qo'li gul chevarlardan biri. Xotin-qizlar faolining o'rganishlari natijasida fuqaroning doimiy ish bilan band bo'lishi, daromad topishi ta'minlandi. Mahallada faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Shavkatjon Komilovning tavsiyasiga ko'ra, subsidiya asosida tikuv mashinasi ajratildi.

Nigoraxon Tojiboyeva hozirda kasanachilik asosida ishlab, buyurtma asosida kiyim-kechaklar hamda ro'zg'or buyumlari ham tikmoqda. Bu bilan oilasini tebratayotgan fuqaro berilgan e'tibordan mamnun bo'lib, o'z minnatdorchiligini bildirdi.

2023-05-27 17:07:49